

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI

FAN: BINO VA INSHOOTLAR DAVLAT KADASTRI

KAFEDRA: DAVLAT KADASTRLARI

# MUSTAQIL ISH

MAVZU: BINO VA INSHOOTLAR DAVLAT KADASTRI  
MA'LUMOTLARIDAN FOYDALANISH

ASHUROV A.

TOSHKENT - 2023

# REJA:

## Kirish

Bino va inshootlar davlat kadastro



## Asosiy qism

Bino va inshootlar ma'lumotlarini  
shakllantirish tartibi

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni  
davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimini yanada  
takomillashtirish



## Xulosa

Bino va inshootlar davlat kadastro ma'lumotlaridan foydalanish



## Foydalanilgan manbalar



## Test sinovlari



Bino va inshootlar davlat kadastro tuman  
(shahar) kadastr daftaridan, kadastr  
rejasidan, kadastr xujjalardan va  
geofondlardan, jismoniy va yuridik  
shaxslarning ko'chmas mulk obektlariga  
bo'lgan huquqlari davlat ro'yhatidan  
o'tkazish sohasidagi arizalari va  
shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibi  
to'g'risida Nizomda belgilangan tartibda  
shakllantiriladigan kompyuter  
ma'lumotlaridan iborat bo'ladi.

Binolar va inshootlar ma'lumotlari asosida tuman, shahar geofondlari yuritiladi. Tuman, shahar geofondlari – binolar va inshootlarning topografiya-geodeziya, kartografiya, muhandislik-geologiya, gidro-geologiya, ekologiya, sanitariya-gigiena, sotsiologiya, loyihalashtirish-rejalashtirish, tarixiy-madaniy, stixiyali ofatlar va texnogen falokatlari, texnik inventarizatsiyalanganligi va pasportlashtirilganligi, mikroseysmik rayonlashtirilganligi va seysmik turg'unligiga oid zamonaviy va tarixiy geoaxborot ma'lumotlari omboridir.

Tuman, shahar binolari va inshootlari to'g'risidagi kadastr ma'lumotlarining kompyuter bazasi tuman, shahar binolari va inshootlarning kadastr, reestr daftariga kiritilgan ma'lumotlari asosida tuziladi.

Binolar va inshootlar to'g'risidagi kompyuter ma'lumotlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha yilning har choragida umumlashtiriladi va bir tizimga solinadi.

**Bino va inshootlar ma'lumotlarini shakllantirish tartibi**

## KO'CHMAS MULKKA BO'LGAN HUQUQLARNI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

So'nggi yillarda respublikamizda ko'chmas mulk ob'ektlariga bo'lган huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish sohasidagi davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish ularning tezkorligi va foydalanish imkoniyatlarini oshirishni, davlat organlari faoliyatining shaffofligiga erishishni va xizmatlardan foydalanuvchilarga axborot xizmati ko'rsatishni yaxshilashni taqozo etmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish, tegishli tizimlarni davlat organlarining elektron ma'lumotlar bazalariga integratsiya qilish ko'chmas mulkka bo'lган huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonini soddallashtirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

**O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat  
kadastro davlat qo‘mitasi, Adliya vazirligi, Markaziy bank hamda  
Davlat aktivlarini boshqarish agentligining:**

**davlat notarial idoralari tomonidan – ko‘chmas mulkka oid bitimlarni  
tasdiqlash ishlarini amalga oshirishda, ko‘chmas mulkning bir qismiga  
bo‘lgan huquqlar vujudga kelgan, boshqa shaxsga o‘tgan, cheklangan  
(yuklangan) va bekor bo‘lgan hollar bundan mustasno;**

**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan – “E-IJRO AUKSION”  
Yagona elektron savdo maydonchasida ko‘chmas mulkni (davlat  
aktivlari qismida) auktsion orqali sotishda;**

**rieltorlik tashkilotlari tomonidan – noturar ko‘chmas mulk bo‘yicha  
rieltorlik xizmatlarini ko‘rsatishda;**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PQ-2639-  
sonli qarori bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda qishloq joylarda  
yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish  
dasturida ishtirok etayotgan tijorat banklari (keyingi o‘rinlarda –  
tijorat banklari) tomonidan – qurilishi tugallangan uy-joyni  
rasmiylashtirishda “yagona darcha” tamoyili asosida Ko‘chmas mulk  
ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reestridan (keyingi o‘rinlarda –  
Reestr) ko‘chirma berish tartibini joriy etish to‘g‘risidagi takliflariga  
rozilik berildi.**

**2019-yil 1-sentabrdan boshlab notarial harakatlar asosida vujudga keladigan Toshkent shahrida joylashgan ko‘chmas mulkka, 2020-yil 1-yanvardan boshlab esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan ko‘chmas mulkka nisbatan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar haqidagi ma'lumotlar Reestriga faqat davlat notarial idorasining talabnomasiga asosan elektron shakldagi kadastr pasporti tayyorlanganidan keyin notariuslar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda huquq egasini o‘zgartirish shaklida kiritiladi va bir vaqtning o‘zida Reestrda ko‘chirma beriladi;**

**2020-yilning 1-yanvaridan boshlab uy-joyga mulk huquqini hamda qonun asosidagi ipotekani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun uy-joyni foydalanishga qabul qilib olish dalolatnomasi va boshqa zarur hujjatlar tijorat banklari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastro davlat korxonasining tegishli tuman (shahar) filiallariga (keyingi o‘rinlarda – davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlar) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuboriladi;**

**2020-yil 1-yanvardan boshlab ko‘chmas mulk ob'ektini “E-IJRO AUKSION” Yagona elektron savdo maydonchasida auktsion orqali sotish (davlat aktivlari qismida) va rieltorlik xizmatlari ko‘rsatish natijasida vujudga keladigan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan ma'lumotlar tegishlicha Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va rieltorlik tashkilotlari tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuboriladi; Reestrda ko‘chirma Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, rieltorlik tashkilotlari va tijorat banklari (keyingi o‘rinlarda – tashkilotlar) tomonidan mulkdorning xohishiga ko‘ra elektron va (yoki) qog‘oz shaklida ko‘chmas mulk ob'ektlariga bo‘lgan huquqlar va qonun asosidagi ipoteka davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyin ushbu bandda nazarda tutilgan muddatlarda beriladi.**

- a) tashkilotlarning ma'lumotlari asosida mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda ko'chmas mulk ob'ektiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida ariza talab etilmaydi;
- b) ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni, shuningdek, qonun asosidagi ipotekani davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan ro'yxatga olish yig'implari undiriladi va ular quyidagi tartibda taqsimlanadi:

10 foizi Adliya vazirligi yoki Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (ko'chmas mulkni "E-IJRO AUKSION" Yagona elektron savdo maydonchasida auktsion orqali sotishda va rieltorlik xizmatlari ko'rsatishda) byudjetdan tashqari jamg' armalarining shaxsiy hisobvaraqlariga yoxud tijorat banklarning bank hisob raqamiga;

qolgan mablag'lar davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlarning bank hisob raqamiga o'tkaziladi;

v) 2020-yil 1-yanvardan boshlab ko'chmas mulkning yangi egalari to'g'risidagi ma'lumotlar ularga bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin tegishlicha davlat notarial idoralari va davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan kommunal xizmatlarning axborot tizimlariga avtomatik tarzda yuboriladi. Bunda communal xizmatlar ko'chmas mulkning yangi egalaridan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilishga haqli emas.

Quyidagilar:

ko'chmas mulkni begonalashtirishda davlat notarial idorasiga Reestriga ulanish imkoniyatini bergen holda, unga bino va inshootlarning tarkibi va tegishliligi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etishni;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan ko'chmas mulk egalaridan davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatga ro'yxatdan o'tkazuvchi organning yozuvi (shtampi) qo'yilishini talab qilishni;

2020-yil 1-yanvardan boshlab qurilgan uy-joyga mulk huquqini hamda qonun asosidagi ipotekani O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash, shuningdek, bankka ro'yxatdan o'tkazilgan uy-joyga nisbatan mulk huquqi to'g'risidagi hujjat nusxasini va qonun asosidagi ipoteka davlat ro'yxatidan o'tkazilgani to'g'risidagi shtamp qo'yilgan kredit shartnomasini taqdim etish bo'yicha qarz oluvchining majburiyatlarini nazarda tutuvchi tartib bekor qilinsin.

O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va Savdo-sanoat palatasining 2020-yil 1 yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida Toshkent viloyati va Toshkent shahrida ko‘chmas mulk bo‘yicha kadastr muhandisi (keyingi o‘rinlarda – kadastr muhandisi) institutini joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi. Kadastr muhandisi shartnoma asosida ko‘chmas mulk ob’ektlarini xatlovdan o‘tkazadi (birlamchi kadastr hisobi bundan mustasno), ularning qavatma-qavat rejalarini tuzadi, texnik rejalarini rasmiylashtiradi, shuningdek, ularni texnik hisobga qo‘yadi. Kadastr muhandislariga nisbatan quyidagi talablar nazarda tutiladi:

geodeziya va yer kadastro bo‘yicha oliy ma'lumotga ega yoki kadastr munosabatlari sohasida kasbiy qayta tayyorgarlik dasturi bo‘yicha ta'lim olgan, shuningdek, tegishli malaka komissiyalarining qarorlari asosida Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasining malaka shahodatnomasini olgan shaxs kadastr muhandisi bo‘lishi mumkin;

malaka shahodatnomasini olish uchun shaxs geodeziya va yer kadastro bo‘yicha kamida bir yil ish stajiga ega bo‘lishi va malaka imtihonini topshirishi shart; kadastr muhandisi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxs rietorlik tashkilotlari bilan mehnat shartnomasini tuzadi.

O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi:

Davlat soliq qo‘mitasi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat personallashtirish markazi bilan birgalikda 2019-yil 1-avgustga qadar Toshkent shahri bo‘yicha, 2019-yil 1-dekabrga qadar muddatda esa Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘yicha mulkdorlar – jismoniy shaxslarning shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlari (JSh ShIM) va mulkdorlar – yuridik shaxslarning identifikatsiya raqamlari (INN) Reestriga kiritilishini; Adliya vazirligi va tijorat banklari bilan birgalikda mavjud axborot tizimlariga zarur o‘zgartirishlar kiritilishini hamda Reestrning mavjud ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalashuvini;

Adliya vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda, shu jumladan, malaka shahodatnomasini berish, kadastr munosabatlari sohasidagi kasbiy qayta tayyorgarlik dasturi bo‘yicha o‘qitish mexanizmini, shuningdek, kadastr muhandislari faoliyatini baholash va monitoring qilish mezonlarini nazarda tutuvchi kadastr muhandisi faoliyati bilan shug‘ullanish tartibi ishlab chiqilishini; kadastr muhandislari faoliyati monitoringi natijalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kadastr muhandisi institutini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritilishini ta‘minlaydi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2019-yil 1-dekabrga qadar rieltorlik xizmatlari ko‘rsatish imkoniyatini ta‘minlovchi yagona axborot tizimini ishlab chiqib, uni Reestr bilan uyg‘unlashtiradi.

**Ma'lumotlarning kompyuter bazasi binolar va inshootlarni klassifikatsiyalashning quyidagi belgilar bo'yicha obyektning guruhlari bo'linishi asos qilib olinadigan yagona tizimi bo'yicha shakllantiriladi: binolar va inshootlarning maqsad yo'nalishi, mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlarda, shuningdek qurilish texnik tavsiflari bo'yicha hududiyligi, yuridik va jismoniy shaxslarga tegishliligi.**

**Binolar va inshootlarning 31 – dekabrdagi holati bo'yicha kadastr ma'lumotlari “Davyergeodezkadastr” qo'mitasi tomonidan har yili tumanlar, shaharlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nashr etiladi.**

**Ushbu nashr etilgan ma'lumotlardan yuridik va jismoniy shaxslar foydalanishi mumkin.**

**Bino va inshootlar davlat kadastro ma'lumotlaridan  
foydalanish**

# TEST

Tuman (shahar) kadastr daftaridan, kadastr rejasidan, kadastr xujjatlaridan va geofondlardan, jismoniy va yuridik shaxslarning ko'chmas mulk obektlariga bo'lgan huquqlari davlat ro'yhatidan o'tkazish sohasidagi arizalari va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida Nizomda belgilangan tartibda shakllantiriladigan kompyuter ma'lumotlaridan iborat bo'ladi?

Davlat yer kadastro

Davlat shaharsozlik kadastro

Bino va inshootlar davlat kadastro

Hududlar davlat kadastro

**Binolar va inshootlar ma'lumotlari asosida nimalar yuritiladi. ?**

Tuman, shahar geofondlari

Ma'lumotlar bazasi

Reestr kitobi

To'g'ri javob yo'q

... – binolar va inshootlarning topografiya-geodeziya, kartografiya, muhandislik-geologiya, gidrogeologiya, ekologiya, sanitariya-gigiena, sotsiologiya, loyihalashtirish-rejalashtirish, tarixiy-madaniy, stixiyali ofatlar va texnogen falokatlari, texnik inventarizatsiyalanganligi va pasportlashtirilganligi, mikroseysmik rayonlashtirilganligi va seysmik turg'unligiga oid zamonaviy va tarixiy geoaxborot ma'lumotlari omboridir.?

Ma'lumotlar bazasi

Reestr kitobi

Tuman, shahar geofondlari

To'g'ri javob yo'q

**Tuman, shahar binolari va inshootlari to'g'risidagi kadastr ma'lumotlarining nimasi tuman, shahar binolari va inshootlarining kadastr, reestr daftariga kiritilgan ma'lumotlari asosida tuziladi?**

**Reestr kitobi**

**Kompyuter bazasi**

**Yig'ma jildi**

**To'g'ri javob yo'q**

**Binolar va inshootlar to'g'risidagi kompyuter ma'lumotlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha qanchamuddatda umumlashtiriladi va bir tizimga solinadi?**

**Yilda bir marta**

**Yarim yilda bir marta**

**Yilning har choragida**

**To'g'ri javob yo'q**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi nechinchi sonli qarori bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi haqida?**

**PQ-2639-sonli qarori**

**PQ-1739-sonli qarori**

**PQ-6098-sonli qarori**

**Barcha javoblar to'g'ri**

**Tashkilotlarning ma'lumotlari asosida mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda ko'chmas mulk ob'ektiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida nima talab etilmaydi?**

**Tilxat**

**Ariza**

**Dalolatnoma**

**Barcha javoblar to'g'ri**

**Yagona elektron savdo maydonchasi qaysi?**

**Yagona darcha**

**E-IJRO AUKSION”**

**Olex**

**To'g'ri javob yo'q**

**Kadastr muhandislariga nisbatan qanday talablar nazarda tutiladi?**

malaka shahodatnomasini olish uchun shaxs geodeziya va yer kadastro bo'yicha kamida bir yil ish stajiga ega bo'lishi va malaka imtihonini topshirishi shart;

**Oliy ma'lumotli bo'lishi shart;**

**Oliy ta'lim bilan kelishuv shartnomasini tuzadi;**

**To'g'ri javob yo'q**

**Kadastr muhandislariga nisbatan qanday talablar nazarda tutiladi?**

**Oliy ma'lumotli bo'lishi shart;**

**Oliy ta'lim bilan kelishuv shartnomasini tuzadi;**

kadastro muhandisi faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs rietorlik tashkilotlari bilan mehnat shartnomasini tuzadi;

**To'g'ri javob yo'q**

**Binolar va inshootlarning 31 – dekabrdagi holati bo'yicha kadastr ma'lumotlari qaysi tashkilot tomonidan har yili tumanlar, shaharlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va O'zbekiston Respublikasi bo'yicha nashr etiladi?**

**Arxitektura va qurilish vazirligi**

**“Davyergeodezkadastr” qo'mitasi**

**Vazirlar Mahkamasi**

**To'g'ri javob yo'q**

**Qaysi tashkilotning 2020-yil 1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida Toshkent viloyati va Toshkent shahrida ko‘chmas mulk bo‘yicha kadastr muhandisi (keyingi o‘rinlarda – kadastr muhandisi) institutini joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi?**

**Vazirlar Mahkamasi**

**“Davyergeodezkadastr” qo‘mitasi**

**Arxitektura va qurilish vazirligi**

**To‘g’ri javob yo‘q**

**Qaysi tashkilotning 2020-yil 1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida Toshkent viloyati va Toshkent shahrida ko‘chmas mulk bo‘yicha kadastr muhandisi (keyingi o‘rinlarda – kadastr muhandisi) institutini joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi?**

**Vazirlar Mahkamasi**

**Arxitektura va qurilish vazirligi**

**Davlat aktivlarini boshqarish agentligi**

**To‘g’ri javob yo‘q**

**Qaysi tashkilotning 2020-yil 1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida Toshkent viloyati va Toshkent shahrida ko‘chmas mulk bo‘yicha kadastr muhandisi (keyingi o‘rinlarda – kadastr muhandisi) institutini joriy etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berildi?**

**Savdo-sanoat palatasi**

**Vazirlar Mahkamasi**

**Arxitektura va qurilish vazirligi**

**To‘g’ri javob yo‘q**

**Binolar va inshootlarning qachondagi holati bo‘yicha kadastr ma’lumotlari “Davyergeodezkadastr” qo‘mitasi tomonidan har yili tumanlar, shaharlar, Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha nashr etiladi?**

**30-iyun**

**1-mart**

**31-dekabr**

**To‘g’ri javob yo‘q**

# Foydalaniłgan manbalar:

[www.google.uz](http://www.google.uz)

[www.yandex.uz](http://www.yandex.uz)

[www.stat.uz](http://www.stat.uz)